

D.I.Mendeleyev nomidagi RKTUning Toshkent shahridagi filialida kirish imtihonlari bo'lib o'tdi

// 19.08.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/d-i-mendeleyev-nomidagi-rktuda-kirish-imtihonlari-bo-lib-o-t>



D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universiteti Toshkent shahridagi filialida 2024-2025-o'quv yili uchun kirish imtihonlari bo'lib o'tdi.

Bugun abituriyentlar rus tili fani bo'yicha bilimlarini sinovdan o'tkazishdi. Kimyo va informatika fanlari bo'yicha imtihonlar 22-23-avgust kunlari bo'lib o'tadi.

Ma'lumot uchun, mazkur OTMda 500dan ortiq bo'lajak kimyogarlar tahsil olmoqda. Ta'lim kunduzgi va sirtqi shaklda olib boriladi. 73 nafar professor-o'qituvchilar yoshlarga sifatli ta'lim berishmoqda. Bakalavriat - 8 ta, magistratura - 2 ta, ixtisoslashgan mutaxassisliklar bo'yicha 2 ta ta'lim yo'nalishlari mavjud.

2024-2025 o'quv yilida- pedagogika, farmatsiya, yadroviy yoqilg'i sikli materialining kimyoviy texnologiyasi, yuqori molekulyar birikmalarning kimyoviy texnologiyasi kabi yana 4 ta yangi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ham qabul bo'lib o'tdi.





uzkimyosanoat (+99878) 140-74-26

uzkimyosanoat (+99878) 140-74-26



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati